

OSIYO



Osiyo – Dunyoning eng ulkan qismi hisoblanib (uning umumiy hududi 43,4 mln. kv. km.ni tashkil etadi) Yevropa bilan birgalikda Yevroosiyo qit'asini hosil qiladi. Osiyo Afrika va Suvaysh kanali bilan tutashgan bo'lib, Shimoliy Amerikadan uni Bering bo'g'ozini ajratib turadi. Ushbu qit'a bir yo'la to'rtta okean suvlaridan bahramanddir. Uning bag'rida ko'plab ulkan orollar mavjud. Osiyoning hayvonot olami yer yuzidagi deyarli barcha hayvon turlariga egaligi bilan ajralib turadi. Bizning jonajon O'zbekistonimiz ham hayvonot olamiga nihoyatda boy o'lkadir. Tabiatga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash, zarur ekologik shart-sharoitlarni yaratish orqali jannatmonand yurtimizdagi noyob hayvon turlarini saqlab qolishning keng imkoniyatlari yaratilmoqda.

Masalan, tundrada shimol bug'usi, shimol tulkisi, oqsichqon, larcha (anq sichqoni) yashasa, dengizlar sohilida tyulenlar va dengiz mushuklari – morjlar, oq ayiqlar yashaydi, o'rmonlar hududida esa bug'usimonlarning ko'pgina turlari, xususan, kiyik, kosulya kabi hayvonlar, rosomaxa, silovsin, kamchatka suvsari kabi yirtqichlar umr kechiradi. Dasht va cho'llarda hamda tog' hududlarida antilopalar, yovvoyi echkilar, qo'ylar, shuningdek, qoplonlar, gepard – ya'ni chitalar, shoqollar uchraydi. O'rmonlarda esa karkidon, yovvoyi buqalarni, Hindiston fillarini, qisqa xartumli sutemizuvchi hayvon–tapirlarni, shu bilan birga, yo'lbarzlarni uchratish mumkin.

Shuningdek, bu qit'ada qushlar, sudralib yuruvchi va hasharotlarning ham yuzlab turlari bor.

АЗИЯ



АЗИЯ – самая большая часть света (ок. 43,4 млн. км²), образует вместе с Европой материк Евразию. С Африкой соединяется Суэцким перешейком, от Северной Америки отделена Беринговым проливом. Омывается водами четырех океанов. Много крупных островов.

Животный мир Азии представлен самой выраженной материковой фауной на Земле. Наш родной Узбекистан особенно богат многими видами животного мира. Бережное отношение и создание экоусловий дают широкие возможности сохранения природы, особенно редких видов животных и их развитие на нашей благодатной земле. Например в тундре живут северный олень, песец, горностай, ласка, у побережья – тюлени, морж, белый медведь, в лесной зоне лось, олени, косуля, кабарга, бурый медведь, россомаха, рысь, соболь, в степях пустыни и гор антилопы, дикие козлы, бараны, барс, гепард, шакал, в лесах обитают носороги, дикие быки, индийский слон, тапир, тигр.



● **Osiyo fili**

● **Азиатский слон**



Osiyo fili, yoki **Hindiston fili** – xartumlilar oilasiga kiruvchi sutemizuvchidir. Osiyo fili gavdasining kattaligiga ko'ra yer yuzida savanna filidan keyin ikkinchi o'rinda turadigan hayvondir.

Uning gavdasi ham nihoyatda haybatli – keksa yoshdagi erkak fillarning tana vazni 5,4 tonnagacha, yelkasi balandligi esa 2,5 – 3,5 metrgacha yetadi.

Азиатский слон, или **Индийский слон** – млекопитающее отряда хоботных. Азиатский слон – второе по величине наземное животное после саванного слона.

Размеры также внушительны – старые особи (самцы) достигают веса 5,4 тонн при росте 2,5–3,5 метра.





Hindiston karkidoni ●
Индийский носорог ●



Hindiston karkidoni – osiyodagi karkidonlar orasida eng yirigidir. O'z gavdasining kattaligiga ko'ra u Osiyoda fildan keyingi ikkinchi o'rinda turadi.

Hindiston karkidoni – nihoyatda ulkan va kuchli jonivor bo'lib, uning vazni ba'zan 2,5 tonnagacha boradi. Yirik erkak karkidonlarning yelka balandligi – 2 metrgacha boradi.



Индийский носорог – самый крупный из азиатских носорогов. По размерам это второй в Азии зверь после слона.

Индийский носорог – огромный и могучий зверь, достигающий веса в 2,5 тонны. Высота крупных самцов в плечах – до 2 метров.



● **Hindiston sheri(arsloni)**

● **Индийский лев**



Hindiston sheri(arsloni), yoki Osiyo sheri – sherlarning alohida turidir.

Hindiston sheri (arsloni) yoki Osiyo sherining tana og'irligi 150 kg dan 220 kg gacha boradi. Uning yollari aytarli qalin bo'lmaydi, odatda u sherining tanasiga, xuddi namlangandek, yopishib turadi. Eng katta Osiyo sherining tana uzunligi 2,92 m ni tashkil etgan.

Индийский лев, или Азиатский лев – подвид льва.

Индийский (азиатский) подвид льва имеет массу от 150 до 220 кг. Грива его не так густа и плотнее прилегает к телу, как будто прилизана. Рекордная длина азиатского льва – 2,92 м.





- **Ikki o'rkachli tuyalar**
- **Двугорбый верблюд**



Ikki o'rkachli tuyalar, yoki **baqtriyanlar** – tuyasimonlar oilasining eng yirik vakilidir.

Ularning yag'rin balandligi 2 metrdan oshadi, ba'zilarida esa bu ko'rsatkich 210 va hatto 230 sm gacha yetishi mumkin. Katta yoshdagi erkak tuyaning o'rtacha vazni 500 kg atrofida bo'ladi.

Двугорбый верблюд, или **бактриан** – крупнейший представитель семейства верблюдовых.

Высота его в холке превышает 2 метра и бывает 210 и даже 230 см. Взрослый верблюд-самец весит в среднем около 500 кг.





Prjevalskiy oti ●
Лошадь Пржевальского ●



Prjevalskiy oti – Markaziy Osiyoda yashaydigan yovvoyi ot turlaridan biridir.

Prjevalskiy otining tana uzunligi 200 sm, o'rtacha yag'rin balandligi esa 130 sm ga yetadi. Bu turdagi otlarning tana vazni 300–350 kg ni tashkil qiyadi.

Лошадь Пржевальского – подви́д дико́й лошади. Обитающий в Центральной Азии.

Длина тела лошади Пржевальского достигает 200 см, в холке среднем 130 см. Вес достигает 300 – 350 кг.





Bengaliya yo'lbarasi ●
Бенгальский тигр ●



Bengaliya yo'lbarasi – yo'lbarlar kichik oilasiga mansub yirtqich hayvon.

Uning umumiy tana uzunligi 270 sm dan to 310 sm gacha yetishi mumkin. Yag'rinining balandligi 90 sm dan 110 sm gacha bo'lishi mumkin. O'rtacha vazni 221,2 kg ni tashkil qiladi.

Бенгальский тигр – подвид тигра.

Общая длина тела, может достигать от 270 до 310 см. Высота в холке составляет от 90 до 110 см. Средний вес составляет 221,2 кг.



- **Kulrang leopard**
- **Дымчатый леопард**



Kulrang leopard – mushuksimonlar oilasining vakili.

Bu yirtqichning tana uzunligi 80–100 sm, dumining uzunligi esa – 75–92 sm bo'ladi. Vazni 16 kg dan 21 kg gacha yetishi mumkin. Yag'rinining balandligi 50–55 sm ni tashkil etadi.

Дымчатый леопард – представитель семейства кошачьих.

Длина туловища дымчатого леопарда 80–100 см, хвоста – 75–92 см. Масса достигает до 16–21 кг. Высота в холке 50–55 см.





Karakal ●
Каракал ●



Karakal, yoki cho'l (dasht) silovsini – mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich sutemizuvchi.

Tanasining uzunligi 65–82 sm. Dumining uzunligi – 25–30 sm. Yag'rinlarining balandligi 45 sm; vazni esa 11–19 kg ni tashkil qiladi.



Каракал, или степная рысь – хищное млекопитающее семейства кошачьих.

Длина тела 65–82 см, хвоста – 25–30 см, высота в плечах около 45 см; масса – 11–19 кг.



- **Osiyo bo'risi**
- **Азиатский волк**



Osiyo bo'risi, yoki Hindiston bo'risi – kulrang bo'ri-ning kichik turi hisoblanadi.

Ushbu yirtqichning yag'rin balandligi 45–75 sm, vazni 25–32 kg gacha yetishi mumkin.

Азиатский волк, или индийский волк – подви-д серого волка.

Высота в холке 45–75см, вес 25–32 кг.





Qizil bo'ri ●
Красный волк ●



Qizil bo'ri, yoki tog' bo'risi – itsimonlar oilasiga mansub yirtqich sutemizuvchi hayvon turidir.

Tana uzunligi 76–110 sm. Vazni esa 17–21 kg gacha yetishi mumkin. Uning tashqi qiyofasida bir paytning o'zida bo'ri-ning, tulkingin hamda chiyabo'ri-ning alomatlari mujassamdir.

Красный волк, или горный волк – хищное млекопитающее семейства псовых.

Длина тела 76–110 см, хвоста – 45–50 см и масса 17–21 кг. В его облике сочетаются черты волка, лисицы и шакала.